O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi
"O'zbek geologiya qidiruv" AJ
Qizilqum markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi
Iqtisodiyot va moliyalashtirish bo'limida Mehnatni tashkil etish va me'yorlash bo'yicha muhandis

XORIJIY INVESTITSIYALARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VOSITALARI

Annotatsiya: Ushbu tezis xorijiy investitsiyalarning mohiyati, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va imtiyozlarning keng qamrovli tizimi joriy etilganligi haqida bayon etilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni mustahkamlash masalalari yoritilgan.
Kalit so`zlar: investitsiya majburiyati, investitsiya loyihasi, investitsiya siyosati .

KIRISH

Respublikada qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik vazifa hisoblanadi. Mamlakatdagi siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishning kuchli kafolati va keng imtiyozlar kabi omillar xorijiy investorlar uchun eng qulay sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xom ashyo, materiallar, energiya resurslari va va yuqori malakali ishchi kuchi bahosi qo‘shni mamlakatlarga nisbatan arzon bo‘lishi xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishga undamoqda.

ASOSIY QISM

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o‘z investitsiya siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Mazkur siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

Prezidentimiz o‘z maruzalarida: “...investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak. Geologiya sohasida joriy yilda 21 ta kon va istiqbolli maydonlar ochiq auksion orqali investorlarga sotildi. 2021 yilda yana 50 ta kon va istiqbolli maydonlar mahalliy va chet ellik investorlarga ochiq mexanizmlar asosida sotiladi. Bunday ishlarni boshqa yo‘nalishlarda ham davom ettirishimiz kerak.Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o‘zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma ob’ektlari ishga tushiriladi” [5], deb ta’kidlab, xususiy va to‘g‘ridan –to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish muhimligini etirof etadi.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sishni tezlashtiruvchi asosiy ustunlik tomonlari quyidagilar hisoblanadi, bular:

- birinchidan, AKT (Axborot-kommunikatsion texnologiyalari) sanoati keng qamrovli bo‘lib, iqtisodiyotning barcha sektorlari ish faoliyati samaradorligini yanada oshiradi;
- ikkinchidan, AKT sanoati mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun kiritilgan investitsiyalarning foyda bilan qaytishini kafolatlay oladi.

Shuningdek, xorijiy investorlarga qulaylik yaratish,ularning huquqiy jihatdan himoyalash, manfaatlarini ta’minlash hamda qonuniy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlab borish maqsadida investitsiya shartnomasini hukumat bilan tuzishning huquqiy asosini ta’minlovchi Nizom ham qabul qilindi. [8].

Mazkur Nizom “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo‘shimcha kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar berishda ular bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish, o‘zgartirish kiritish, tugatish va amalga oshirish tartibini belgilaydi. Bular hukumat tomonidan beriladigan kafolatlar, maxsus bojxona, soliq va to‘lov rejimlari, loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish, investitsiya dasturiga kiritish va boshqalardan iboratdir. Biroq investorga bozorda ustun mavqeni yaratuvchi mutlaq huquqlar berilishi mumkin emas. Quyida bayon etiladigan tartib 10 mln. AQSh dollaridan ko‘p bo‘lmagan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishda hududiy hokimiyat organlari bilan tuziladigan investitsiya shartnomalariga tatbiq etilmaydi.

Xususan, chet ellik investorlarga kafolatlar va qo‘llab-quvvatlash choralari (imtiyozlar va preferensiyalar) quyidagicha:

-barqaror iqtisodiy o‘sishni, mamlakat iqtisodiyotining ilg‘or texnologik o‘zgarishini ta’minlovchi ustuvor tarmoqlarga;

-respublikaning eksport salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishni, respublikani jahon xo‘jalik aloqalariga integratsiyalashni ta’minlovchi ustuvor loyihalarga investitsiya kiritishda har bir aniq holatda beriladi.

Ya`ni, soliqlar, bojxona to‘lovlari va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar chet ellik investorlar tomonidan tashkil etilgan chet ellik investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga faqat aniq belgilangan muddatga beriladi va muddatsiz bo‘lishi mumkin emas. Investitsiya shartnomasi, shuningdek unga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar yozma shaklda tuziladi. Har ikkala holatda ham bir xil tartib-tamoyil amal qiladi. Shartnomani Hukumat nomidan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi imzolaydi. Bunday shartnomani tuzish bo‘yicha taklif bilan tashabbus ko‘rsatish chet ellik investor tomonidan mustaqil ravishda yoki davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari yoxud xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan birgalikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganimizda, taraqqiy etgan davlatlarning boy tajribasi, bosib o‘tgan yo‘li, mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash borasida qabul qilgan qonunlari,ishlab chiqqan qarorlarini o‘rganish, investitsiyalari kengroq jalb etish bo‘yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining mos jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero,xorij tajribalarini yurtimizning o‘ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo‘llanilishi, tavakkalchilikni kamaytirishga,salbiy holatlarning oldini olishga,eng muhimi yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq jalb etilishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.”Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 8 fevral.

2. Аюпов, Т. Р., & Охунов, Ш. Р. (2021). “YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali. *YOSH TADQIQOTCHI JURNALI*, *99*.

3. Аюпов, Т. Р. (2019). Русский язык и литература как средство знакомства с культурой России. *XXIII Царскосельские чтения: материалы междунар. науч*, *167*.

4. Ayupov, T. R. (2022). FEATURES OF THE ARTISTIC HERO, IN MARIANNA GRUBER'S NOVEL" TO THE CASTLE". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 243-246.

5. Rustamovich, A. T. (2022). Artistic system of author's thinking “Notes from the Underground” by FM Dostoevsky and “A Hero of Our Time” by M. Yu. Lermontov. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*(12), 236-239.

6. Аюпов, Т. Р. (2020). Художественные реалии в ранних рассказах Виктора Пелевина. *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, *13*(7), 5-9.

7. Bazarova, D. B. (2023). ON THE USE OF ALTERNATIVE WORDS. *American Journal Of Philological Sciences*, *3*(05), 48-51.

8. Bozorova, D. B. (2015). Some notes of variability in the Uzbek linguistics. *Theoretical & Applied Science*, (4), 135-138.

9. Bazarova, D. (2022). Variability of phraseological units. *Science and innovation*, *1*(B7), 483-486.

10. Аликулова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭПИТЕТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АИ КУПРИНА. *Scientific progress*, *4*(5), 387-390.

11. Teshabayevna, K. U. (2023). Some Aspects of Teaching the Russian Language in the Primary School. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(6), 43-45.

12. Курбанова, У. (2023). РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 565-569.

13. Оқбўтаев, Б. (2023). СЎФИЁНА АДОЛАТ3. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(21).

14. Оқбўтаев, Б. Ҳ. (2023). ТАСАВВУФ ИЛМИ ВА НАЖМИДДИН КОМИЛОВ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, *2*(3), 90-96.

WORDLY KNOWLEDGE